

## OLIIY MA'LUMOTLI BO'LIISH BIZ UCHUN QANCHALIK MUHIM

*Toxirova Madina Alisher qizi**Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Boshlang'ich ta'lim 1-kurs**[Mtoxirova855@gmail.com](mailto:Mtoxirova855@gmail.com) +998977032283*

**Annotatsiya:** Bu maqolamda bizga diplom o'zi kerakmi va qanday kasblarga diplom kerak bo'lmaydi, Mashhur yozuvchining fikri haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Diplom olish, O'zdemir Asaf, har doim ham diplom kerak bo'lavermasligi, bolalar va kattalar fikri.

Inson yaralibdiki yaxshi yashashga, munosib turmush tarzini yaratishga, atrofda qilargalarga, jamiyatga kerakli shaxs bo'lishga intiladi. Bu borada yoshlikda olingan ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynaydi. Nega aynan ta'lim-tarbiya degan savol kelishi tabiiy hol. Sababi ta'lim bilan tarbiya bir biriga uzviy bog'liqdir. Ta'lim yo'q joyda tarbiya ham bo'lmaydi yoki aksincha tarbiya yo'q joyda ta'lim ham bo'lmaydi.

Xalqimiz orasida shunday naql bor, "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Darhaqiqat, inson nechi yosh bo'lishidan qat'i nazar ilm olishi hamda o'z ustida ishlashi kerak. Zero, Islom - ilm dini ekanligi barchamizga ayondir. Hozirgi kunda ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan "diplom olish", ya'ni oliy ma'lumotli bo'lish biz uchun qanchalik muhim degan fikrlar barchamizni o'ylantirib qo'ymoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. Oramizda diplom oddiy qog'oz, hech narsaga yaramaydi deydigalnar ham afsuski, topiladi.

Shuni ham takidlash joizki, hatto aksariyat ota-onalar diplom olishga qarshi bo'lgalnar yetmagandek, "o'qib olim bo'larmiding" - deyishadi. Ota-onalar shunday deyayotgan bo'lsa, biz yoshlar nima deyishimiz mumkin?!

So'ngi paytlarga kelib nafaqat kattalar balki yoshlar ham faqat salbiy tarafni ko'radigan, hamda osonlik bilan go'zal hayot kechirishni xohlab qolishgan. Biron bir inson oliy ma'lumotli bo'la turib ishga joylasholmaganini ko'rsalar bo'ldi birzumda yomon gumonga borib, diplomning foydasi yo'q, diplom kerak emas degan fikrga yopishib oladilar. Kaminayi kamtarin ham xuddi shunga o'xshash, fikrlarining guvohi bo'lgan. Hozirgi yoshlar hech qanday harakat qilmay, tekintomoq bo'lib yengilgina hayotga erisha olaman, boy bo'lib ketaman deb o'ylashadi. Ana ko'rdik o'qigalnarining ahvolini deyishadi. Lekin ularning "ko'zlariga" o'z kasbini yetuk kadri bo'lib chiqanlar ko'rinmaydi.

Inson o'zidan-o'zi tug'ilib qolmaganidek, muvoffaqiyatli insonlar ham birinchi urinishdayoq yutuqlarga erishib qolmaydilar. O'zdemir Asaf aytganidek: "Maktabda tushunsanggina muvaffaqiyatga erishasan, Hayotda muvaffaqiyatga erishsangina tushunasan". Avvalo, amallar niyatga qarab belgilanadi. Ixlos bilan to'g'ri niyat qilinsa maqsadga erishish shuncha ossonroq bo'ladi.

Bilamizki, maqsadga erishish uchun har doim ham diplom kerak bo'lavermaydi. Ya'ni diplom kerak va kerak bo'lmaydigan kasblar ham bor. Deylik siz kelajakda pedagog bo'lmoqchisiz bunda sizga diplom kerak bo'ladi, sababi o'zingiz bilmagan narsani yosh bolalarga qanday o'rgata olasiz?. Endi robototexnika, IT, SMM o'rganmoqchi bo'lsangiz kelajagingizni shu hunarni o'rganib ko'ra olsangiz bunda sizga diplom kerak bo'lmaydi. Har bir inson oldiga maqsad qo'ygandan so'ng o'ylashi kerak "O'zi menga diplom kerakmi?" deya. Agar sizga diplom kerak bo'lmasa o'zingizni va boshqalarni zarariga ishlamang ya'ni universitetga topshirmang. Chunki siz kimningdir o'rnini band qilib qo'yishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, inson faqatgina diplom olish uchun emas, o'zi uchun ham o'qishi, shu bilganlarini o'zgalarga ham ulashib amalda qo'llashi kerak. Sababi o'qigan inson bilan o'qimagan insoning orasida ancha farq bo'ladi hamda dunyo qarashi, o'y-u xayollari o'zgacha bo'ladi. Eng muhimi ular yurtning davomchilari bo'lib qolishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyot**

1. Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar Mo'min Sekmen, Dr. Baxar Erish (yangi asr avlodi 2022-yil)